

## TOHIR MALIKNING “SHAYTANAT” ASARIDA IBORALARING QO’LLANILISHI

Boliyev Azamat

toshkent tuman 1-son kasb-hunar  
maktabi ona tili va adabiyot fan o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Tohir Malikning “Shaytanat” asaridagi iboralarning o‘rnini, noyob topilmalar, ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabat va tilshunoslikda bu birliklarni o‘rgangan olimlarning talqinlari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** ibora, idioma, idiomatiklik, idiomatik birikma, frazema, frazeologiya, nominativlik.

O‘zining badiiy mahorati, noyob topilmalari bilan haligacha kitobxonlar ko‘nglini zabit etib kelayotgan qalami o‘tkir ijodkorlardan biri Tohir Malik. Adibning har bir asarida o‘zbek tilining keng imkoniyatlarini ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, yozuvchi ijodida frazemalarning o‘rni beqiyos. Tilimizdagi bu birliklarni Sh.Rahmatullayev, G‘.Salomov, Q.Samadov, Sh.Shorahmedov, X.Abdurahmonov, M.Sadriddinova kabi taniqli olimlarimiz o‘rgangan. Ma’lumki, tilshunoslikda iboralarning qamrov doirasi haqida rang-barang, turli xil qarashlar mavjud. Bular: 1. Ibolarlar ma’nosini tarkibidagi leksemalar ma’nosiga bog‘liq bo‘lmay, balki yaxlitligicha bir ma’no beruvchi so‘zlar bog‘lanmasidir: “Idora bajara olmaydigan ishni o‘g‘lingizga o‘xshagan shovvozlar bir nafasada, xamirdan qil sug‘urganday do‘ndirib qo‘yishyapti “. Bu o‘rinda Tohir Malikning “Shaytanat” asaridagi birovning harakatini baholab, “u ishni osonlikcha bajardi” desak, bu ma’no alohida olingan, “u”, “ishni”, “osonlikcha”, “bajardi” so‘zlarining asl ma’nosidan kelib chiqadi. “Xamirdan qil sug‘urganday” frazemasida esa “osonlikcha bajarmoq” ma’nosini “xamirdan”, “qil” va “sug‘urganday” fe’lining birlamchi birlamchi ma’nosidan kelib chiqmaydi, balki bu so‘zlarning har uchalasi birgalashib, yangi umumiyligi ma’no kasb etadi. Shunday qilib, frazema tarkibidagi so‘zlar o‘z ma’nosida qo‘llanmaydi, biri ikkinchisini izohlamaydi, balki barchasi birgalikda yangi bir ko‘chma ma’no yaratadi. Iboralarning bu xususiyati idiomatiklik deb yuritiladi. Ibora bu idiomatik birikmadir. 2. Ibora turg‘un so‘z bog‘lanmasi bo‘lib, obraz asosiga qurilgan bo‘ladi. Bizga ma’lumki, ko‘pgina so‘z bog‘lanmalarini so‘zlovchi nutq jarayonida ketma-ket o‘zi tuzadi. Misol uchun qaysi bir odam sizning nazaringizda juda ezilgan bo‘lib ko‘rinsa, siz o‘zingiz tanlab olgan so‘zlar ishtirokida uni “nihoyatda ezilgan” yoki “juda horg‘in” deb ta’riflashingiz mumkin. Agarda siz

unga “ichini it tatalardi” deya baho bersangiz, buni siz nutq jarayonida mustaqil so‘zlarni bir-biri bilan qo‘sish natijasida yaratmaysiz, balki o‘z xotirangizda mavjud bo‘lgan tayyor so‘z bog‘lanmasini qo‘llagan bo‘lasiz, xolos: “ Anvar jinnixonadan chiqib kelganidan beri uning ichini it tatalardi” . Shuni aytish o‘rinlik, turg‘unlik til birliklariga xos (nutq birliklariga emas). Bu birliklarni inson til o‘rganish jarayonida eslab qoladi, xotirasida saqlaydi va kommunikatsiya paytida undan foydalanadi. Xuddi shu xususiyati bilan ibora boshqa til birliklari, ya’ni so‘zlar bilan birlashadi. 3. Ibora til birligi bo‘lib, so‘z kabi tushuncha anglatadi. Masalan, “juda epchil, abjir” bu so‘zlar ketma-ketligi bo‘lsa, “bir o‘q bilan o‘n quyonni urmoq” iborasi teng keladi: - Bir o‘q bilan bilan istasam o‘n quyonni uraman. Yuqoridagi tushunchani ifodalashga xizmat qilmoqda. Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” da “bir o‘q bilan ikki quyonni urmoq”, “bir o‘q bilan ikki qushni urmoq”shaklida ham uchraydi. 4. Gapda so‘z yoki so‘z birikmasiga muqobil variant bo‘lishi natijasida atamalikka ega bo‘ladi. Masalan, asarda keltirilgan ushbu o‘rinda “manman”, “havolangan”, “kibrli” degan leksemalarga teng kelgan ibora qo‘llanilgan: - O‘jarlik qilma, burniga suv kirgandir. Bundan tashqari “Shaytanat” asarida “qovog‘idan qor yog‘adi”(Ha,tinchlikmi, qovog‘ingdan qor yog‘adi?), “devor bo‘lmasa, ko‘chani ko‘radigan”(Bekor aytibsan. Men devor bo‘lmasa, ko‘chani ko‘radigan odamman), “ko‘nglida kir saqlamoq”(Lekin ko‘nglimda kir saqlab qolmaganman), “parvoyi falak”(Hozircha jim.Bez bo‘lib o‘tiribdi.Parvoyi falak), “joni halqumiga keldi” (“To‘yimizini o‘zingiz qizitib berasiz, aytganingizdan bir so‘m kam bergan-nomard”, deb gap boshlashining o‘zidayoq Elchinning joni halqumiga keldi) frazemalarini uchratishimiz mumkin. Umuman olganda, so‘zlardan tashkil topib, ma’nosи o‘z tarkibidagi so‘zlarning asl ma’nolariga bog‘liq bo‘lmagan idiomalar: ma’noviy butunlikka ega bo‘lib, umumiyo ko‘chma ma’no ifodalashi, tilda tayyor holda mavjud bo‘lib, obraz asosiga qurilgan bo‘lishi, gapda so‘z yoki so‘z birikmasiga muqobil variant bo‘lishi va shu tufayli nominativlikka ega bo‘lishi lozim (ma’nosи to‘g‘ri kelsa ham, ammo situatsiya, emotsiyal-ekspresivlik va boshqa xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadigan birliklar muqobil birliklardir). Ko‘rib o‘tilganidek, yuqoridagi frazemalar taniqli adib Tohir Malikning “Shaytanat” asarida turli uslubiy vazifalarda qo‘llanilgan. Bu birliklar bir o‘rinda personajlarning individualligini, yana bir o‘rinda esa badiyilagini oshirishga xizmat qilgan. Tohir Malikning asarlarida bunday til va nutq birliklarining noyob topilmalarini ko‘plab uchratishimiz mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

- 1.Jo'rayeva B. Maqolning yondosh hodisalarga munosabati va ma'noviy xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2006.
- 2.Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
- 3.Malik T. Shaytanat.
- 4 jildlik, 2-jild. – Toshkent: Sharq. 2006.